



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



**2024- YIL
yanvar-iyun
OYLARIDA
ASOSIY
KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**






2024- yilning yanvar-iyun oylarida 19 578,7 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar oʼzlashtirilib, ularning 84,4 % i yoki 16529,2 mlrd. soʻmi jalb etilgan mablagʼlar hisobidan moliyalashtirilgan boʼlsa, korxona, tashkilot va aholining oʼz mablagʼlari hisobidan 15,6 % yoki 3049,5 mlrd. soʻm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023- yildagi ulushiga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi, 11,4 % ni yoki 2230,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 17348,5 mlrd. soʻm yoki jami investitsiyalarning 88,6 % investitsiyalari oʼzlashtirilib, 2023- yildagi koʼrsatkichga nisbatan 1,9 % punktga koʼpaydi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm



2024- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 3049,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,6 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,0 % yoki 1179,1 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5198,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib, 264,3 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalastirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarda kuzatilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,1 m % ga ko'paydi. Bu yuqori o'sish "TALIMARJON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ tomonidan quvvati 950 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Qashqadaryo viloyatidagi ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	19578,7	211,0	100,0
Qarshi sh.	1703,1	105,7	8,7
Shahrisabz sh.	444,1	297,4	2,3
tumanlar:			
G‘uzor	2737,2	226,3	14,0
Dehqonobod	127,3	83,4	0,6
Qamashi	322,0	191,7	1,6
Qarshi	439,1	118,5	2,2
Koson	376,4	112,3	1,9
Kitob	290,8	71,7	1,5
Mirishkor	1122,3	665,7	5,7
Muborak	3807,1	256,1	19,4
Nishon	6436,3	344,4	32,9
Kasbi	321,0	89,8	1,6
Ko‘kdala	61,4	49,0	0,3
Chiroqchi	368,3	121,5	1,9
Shahrisabz	466,9	246,4	2,4
Yakkabog‘	555,4	148,9	2,8

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2023- yilning mos davriga nisbatan 324,1 % ga ko‘paydi. Bunday natijani mebel ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirayotgan “Bunyodkor” MCHJ tomonidan Turkiya davlatidan kiritilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

2024- yil yanvar-iyun oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2023- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 6,6 m ga o'sib, Mirshikor tumanida tashkil etilgan, "**Mirshikor ratex tekstil**" MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil etish uchun o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Shuningdek, Nishon tumanida xam yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi. Bu asosan klaster asosida tashkil "**Indorama agro**" XK tomonidan 1000 hektar tomchilatib sug'orish, lazer tekislash, kanal

betonlashtirishni tashkil etish uchun kiritilgan investitsiyalar bilan bog'liq.




Mashina, uskuna, inventar




Qurilish-montaj ishlari

Boshqa xarajatlar



Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 10 367,7 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 53,0 % ini tashkil etdi. Qurilish-montaj ishlari bo'yicha 7 302,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 37,3 %) va boshqa xarajatlarga 1 908,2 mlrd. so'm (9,7 %) o'zlashtirildi.



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirshikor tumanida kuzatildi – 74,6 % yoki 837,3 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Nishon tumanida kuzatilib, 21,3 % ni yoki 1370,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Kasbi tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 69,0 % yoki 320,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 10971,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 56,1 %ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich "Mirishkor ratex tekstil" MCHJ tomonidan ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil etish uchun o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 7057,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 36,0 %ini tashkil etdi. Qolgan 7,9 %, ya'ni 1545,8 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Hudular bo'yicha yangi qurilish ishlaringning ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'naliishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH - MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSIYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSIYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 7294,6 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan 32,3 % tashkil o'zlashtirilgan.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


ICHIMLIK ISHLAB CHIQARISH
198,8 mlrd. so'm
Ulushi 11,9 %

BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH
181,3 mlrd. so'm
ulushi 10,8 %

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH
796,9 mlrd. so'm
ulushi 47,6 %

Tog‘-kon sanoatida jami 7294,6 mlrd.so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami investitsiyalar hajmining 32,3 % i o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning tarkibidan 87,2 % i yoki 6363,1 mlrd. so‘mi tabiiy gaz qazib olish sohasiga tegishlidir.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da




Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Jami	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	mlrd. so'm Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
Qashqadaryo viloyati	19578,7	5198,6	1 666,8	12 713,30
Qarshi sh.	1703,1	165,4	77,9	1 459,80
Shahrisabz sh.	444,1	-	-	444,10
tumanlar:				
G'uzor	2737,2	2,2	-	2 735,00
Dehqonobod	127,3	-	10,0	117,30
Qamashi	322,0	8,2	-	313,80
Qarshi	439,1	44,0	8,4	386,70
Koson	376,4	-	62,3	314,10
Kitob	290,8	55,3	-	235,50
Mirishkor	1122,3	42,0	-	1 080,30
Muborak	3807,1	25,1	-	3 782,00
Nishon	6436,3	4636,9	1 276,4	523,00
Kasbi	321,0	183,5	-	137,50
Ko'kdala	61,4	-	-	61,40
Chiroqchi	368,3	-	-	368,30
Shahrisabz	466,9	-	90,1	376,80
Yakkabog'	555,4	36,0	141,6	377,80

2024- yil yanvar-iyun oylarida 15 817,2 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 80,8 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 5 198,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 8 951,8 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

IJTIMOY SOHA OBYEKTALARINI ISHGA TUSHIRISH



Turar-joylarni ishga tushirish

	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Qashqadaryo viloyati	2145	467,7
Qarshi sh.	222	48,0
Shahrisabz sh.	74	16,1
tumanlar:		
G'uzor	216	52,9
Dehqonobod	95	24,7
Qamashi	124	21,1
Qarshi	153	38,3
Koson	200	45,3
Kitob	235	55,4
Mirishkor	53	8,6
Muborak	64	9,6
Nishon	86	11,0
Kasbi	81	21,3
Ko'kdala	26	4,2
Chiroqchi	295	69,1
Shahrisabz	105	18,5
Yakkabog'	116	23,8

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Qishloq joylar ulushi

0,0 km
uzunlikdagi suv
tarmog'i



0,0 km
uzunlikdagi gaz
tarmog'i



7666 o'quvchi
o'ringa
mo'jallangan
muktablar



0,0 o'ringa
mo'jallangan
muktabgacha ta'lif
muassasalar



500 qatnovga
mo'jallangan
poliklinikalar




Suv tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi.,.

Gaz tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi.

Muktablar qurilishida jami 113,3 mlrd. so'm
investitsiyalar Respublika budjeti hisobidan
o'zlashtirildi.

Muktabgacha ta'lif muassasalar qurilishida jami
3,8 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib,
ulardan 100,0 % i Respublika budjeti hisobidan
o'zlashtirildi.

Kasalxona va poliklinikalar
qurilishida jami 14,4 mlrd. so'm
investitsiyalar Respublika budjeti
hisobidan o'zlashtirildi.



Qarshi tumanida 330, Koson tumanida 420, Ko‘kdala tumanida 600 va Shahrisabz tumanlarida 870 o‘quvchi o‘ringa mo‘ljallangan maktablar rekanstruksiya hisobidan ishga tushirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi

Aloqa telefoni: **(75) 221-32-47**